



UDK: 81'=512.133:801.61

Shahlo MALIKOVA,
O'zMU Lingvistika (o'zbek tili) 1-kurs magistranti
E-mail: ibrohmovashahlo41@gmail.com
Tel: (94) 677 29 04

JIDU katta o'qituvchisi (PhD) Sh.Xudaykulova taqrizi asosida

STUDY OF INTERTEXTUALITY PHENOMENON IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation

This article focuses on the history of studying the phenomenon of intertextuality in the field of philology. Different views of world and Uzbek linguists were analyzed. Emphasis was placed on the issue of intertextuality and the meaning of intertext terms, their place in the text. The intertextuality competence was proved to be related to history, linguistic culture and association.

Key words: Anthropocentric paradigm, intertextuality, intertext, intertextual unity, text, discourse, author's intention, precedent units, association, linguistic culture, history.

ИЗУЧЕНИЕ ФЕНОМЕНА ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Данная статья посвящена истории изучения феномена интертекстуальности в сфере филологии. Проанализированы различные взгляды мировых и узбекских лингвистов. Акцент был сделан на вопросе интертекстуальности и значении интертекстовых терминов, их месте в тексте. Доказано, что интертекстуальная компетенция связана с историей, лингвокультурой и ассоциацией.

Ключевые слова: Антропоцентрическая парадигма, интертекстуальность, интертекст, интертекстуальное единство, текст, дискурс, авторский замысел, прецедентные единицы, ассоциации, лингвокультура, история.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA INTERTEKSTUALLIK HODISASI TADQIQI

Annotatsiya

Mazkur maqolada intertekstuallik hodisasining filologiya sohasida o'rganilish tarixiga e'tibor qaratildi. Dunyo va o'zbek tilshunos olimlarining turli qarashlari tahlilga olindi. Intertekstuallik va intertekst terminlarining mohiyati, matnda tutgan o'rni masalasiga urg'u berildi. Intertekstuallik kompetensiyasi tarix, lingvomadaniyat va assotsiatsiya bilan bog'liqligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: Antroposentrik paradigma, intertekstuallik, intertekst, intertekstual birlik, matn, diskurs, muallif niyati, presedent birliklar, assotsiatsiya, lingvomadaniyat, tarix.

Kirish. "Inson", "til" va "atrofdagi voqelik" tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligi umumiy e'tirof etilgan. Jamiyatda sodir bo'layotgan dinamik jarayonlar tilda ham o'z aksini topadi. XX asr o'rtalarida paydo bo'lgan antroposentrik paradigma – til va shaxs munosabatiga qarashni o'zgartirdi: tilga mavhum tushuncha sifatida emas, balki uning bevosita tashuvchisi bilan yaqin munosabatda bo'lgan real hodisa sifatida qarala boshlandi. Antroposentrik yo'nalish doirasidagi ishlarga talab har qachongidan kuchli. Intertekstuallik hodisasi nafaqat lingvistika, balki adabiyotshunoslik, falsafa, sotsiologiya, psixologiya sohalarining ham tadqiqot obyekti hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu mavzu dunyo va o'zbek tilshunos olimlarini birdek qiziqitirmoqda. Buni intertekstlarning matn va diskursda ko'p bora murojaat etilayotgani bilan izohlash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijda va o'zbek tilshunosligida olib borilgan lingvistik tadqiqotlarga ko'ra, intertekstuallik har bir matnga xosdir, o'z o'rnida har bir matn ham intertekstdan iborat degan g'oya o'z tasdig'ini topdi. Uzoq tarixga ega bo'lgan intertekstuallik atamasi Mixail Baxtin va Yuliya Kristeva nomi bilan bo'liq. Termin sifatida Y. Kristevaning "Baxtin, so'z, dialog, roman (1967)" nomli ilmiy risolasi ilk bor tilga olingan. Rus adabiyotshunosi Baxtinning "Og'zaki badiiy ijodiyotda mazmun, material, va shakl muammosi" (1924) risolasi har tomonlama ishlab chiqilgan dialog konsepsiyasini ko'rib chiqish, qayta anglash zamirida paydo bo'ldi, desak yangilishmagan bo'lamiz.

Fransuz olimasi fikricha, intertekstuallik deb alohida olingan matn ichida mavjud tagmatn, ya'ni kontekstning matnga doir integratsiyasini tushunish lozim. M. Baxtin intertekstuallikni "unutilgan ma'nolar", "onglar dialogi" deydi. Kristeva esa "iqtibos mozaikasi", "matnlararo dialog" sifatida qabul qiladi [1]. Bizningcha, intertekstuallik matnlarning umumiy xususiyati hisoblanadi, matnda bir- biriga bevosita yoki bilvosita yo'llar bilan murojaat qilish orqali aniqlanadi.

R. Bartning 1973 yilda chop etilgan "Matndan rohatlanish" risolasi keltirilishicha, har bir matn intermatn, unda boshqa matnlar turli shakllarda mavjud, har bir matn eski iplardan to'qilgan yangi matodir. Madaniy kod elementlari, ritmik tuzilmalar, ijtimoiy idiomalar va boshqalar matnga singib ketadi va unga aralashadi, chunki til doimo matndan oldin va uning atrofida mavjud. Intertekstuallikni manbaa va ta'sir muammosiga olib borish xatodir; intertekstuallik qo'shtirnoq belgisiz keltirilayotgan g'ayrushuriy yoki avtomatik jumlar va iboralar, kelib chiqishi amrimahol bo'lgan anonim formulalarning umumiy maydonini kasb etadi [2]. I. Ilyin ham bu fikrlarni davom ettirgan holda o'zining "Postmodernizm lug'atlari termini" da qayd etishicha: "Intertekstuallik nuqtai nazaridan olib qaralganda, dunyo ulkan bir matndek namoyon bo'ladi, unda barcha narsalar qachonlardir aytib bo'lingan, yangi narsa esa faqat muayyan elementlar ayrim kombinatsiyalarda qorishgandagina namoyon bo'lishi mumkin [3]. Yana bir guruh olimlarning fikricha, go'yoki intertekstuallik har qanday matnga xos bo'lgan xususiyat, bunday xususiyatga ega bo'lmagan matn

mavjud emas, chunki yangi biron-bir gap aytishning imkoniyati yo'q, barcha gaplar qachonlardir kimlardir tomonidan aytib bo'lingan, mabodo matnda nimadir yangi narsa yuzaga kelgan bo'lsa, u ham eski, avvaldan ma'lum narsalarning yangicha kombinatsiyasidan boshqa narsa emas. Bizningcha, bu fikr biroz yangilash, agar shunday bo'lganda edi bu yorug' olamda yashashimizning o'zida zerikarli bo'lar edi. Muallif pozitsiyasi ham hech qanday maqomga ega bo'lmay qolar edi. Badiiy asar muallifnigi emas, u oddiy vositachi o'rnida bo'lib qolar edi.

Tilshunos Y. P. Solodub intertekstuallikni turli mualliflarga tegishli bo'lgan, biri avval, ikkinchisi keyinroq yaratilgan ikki adabiy matn o'rtasidagi bog'liqlik sifatida izohlaydi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Intertekstuallik matnda boshqa matnga dahldor unsurlarning mavjudligidir. Har qanday matn tarkibida intertekstual birlik bo'lishi shart degan qarash yo'q, bu yozuvchining badiiy niyati bilan bog'liq. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, intertekstuallik matn mazmuni va lisoniy qurilish bilan uyg'unlashib asarga go'zallik bag'ishlaydi.

Atama olimlar tomonidan bir necha nomlarda qo'llanilgan, xususan Muhammadjon Xolbekov o'z maqolasida intermatn terminini qo'llaydi, bundan tashqari matnlaro termin, tekstlararo aloqalar kabi shakllari ham mavjud. M. Yo'ldoshev esa intertekstuallik termini hodisa mohiyatini, ya'ni matn ichida boshqa matn unsurlari tushunchasini aniqroq va to'liqroq aks etishini ta'kidlab o'tadi va biz ham shu termin umumjahon deb o'ylaymiz.

O'zbek tilshunosligida intertekstuallik muammosining o'rganilishi Ma'rufjon Yo'ldoshev nomi bilan bog'liq. Uning "Matnning lingvopoetik tadqiqi" nomli doktorlik ishida badiiy matnning tarkiblanishidagi muhim nuqtalardan biri intertekstuallik ekanligi aytib o'tilgan va uning turlari haqida alohida fikr yuritilgan[5]. Muhammadjon Xolbekov "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalidagi "Matn, intermatn va intermatnlik" nomli maqolasida intertekstuallikni tadqiq qilishning quyidagi uchta istiqbolli yo'nalishi mavjudligini aytadi:

1. Sinxroniyaga asoslangan tadqiqot, aniqroq qilib aytganda –matnlarni taqqoslash;

2. Diachroniyaga asoslangan tadqiqot, ya'ni dalil keltirib isbotlash, asoslab berish modeli, turli matnlar modeli va lug'aviy birliklar kelib chiqishini aniqlab, matn yaratilish tarixini o'rganish;

3. Bitta, alohida olingan matnning har taraflama, konkret tadqiqoti, ya'ni boshqa matnlarning muayyan tilga oid xususiyatlarini aniqlash, bir-biridan ajratgan holda tasnifini tuzish [6].

D.Xudoyberganova "O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini" nomli doktorlik dissertatsiyasining 4-bobida lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan presedent biliklarning matn yaratilishidagi o'rni haqida to'xtalgan.[7] Presedentlikni intertekstuallikning bir ko'rinishi, til egalari asosiy qatlamiga yaxshi tanish ekanligi, nutqda qayta-qayta qo'llanishi bilan xarakterlanishini qayd etgan. Biz ham bu fikrga qo'shilamiz. Presedent birliklar xalq assosatsiyasida mavjud bo'lgan lingvomadaniy birliklardir va ularga murojaat qilish bilan intertekstuallik hodisasi yuz beradi. Olima presedent birliklarni shakliy jihatdan presedent nom, presedent jumla va presedent matn kabi turlarga ajratgan, ularning har biriga badiiy matnlardan misollar ham keltirib o'tgan.

Yuqoridagi misoldan ham ko'rishimiz mumkinki, intertekst sifatida she'rdagi bir misradan foydalanilgan, ba'zi hollarda biror she'r, rivoyat, hikoya, tarixiy voqea, mashhur shaxs va boshqalarga ishora ham qilish mumkin. Bu yozuvchining ijodiy maqsadidan kelib chiqib tanlanadi va o'quvchining lisoniy xotirasi ham katta rol o'ynaydi, chunki

yozuvchi intertekstdan foydalansa, lekin u hech kimga tanish bo'lmagan matn bo'lsa, muallif o'z niyatiga yetmagan bo'ladi.

Intertekstuallik hodisasining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, inter – o'rtasida, orasida, tekst – matn, ya'ni matn ichida matn kelishidir. Matnlar orasida nafaqat yaxlit butun matn, balki uning parchasi yoki unga ishora qiluvchi birliklar uchrashi ham mumkin [8].

Bir guruh olimlar ushbu hodisani faqat adabiyotdan izlash kerak degan fikrni beradi, biroq intertekstuallik faqat badiiy matnda emas, balki ilmiy, publitsistik, siyosiy diskursda, shuningdek, reklama, kinometografiya sohasida ham o'z o'rniga ega. Demak, intertekstuallik barcha matnlarga xos universal semiotik hodisadir. Badiiy matnda intertekst sifatida afsona, rivoyat, hadis, aforizmlar, boshqa bir yozuvchining asaridan parcha, maqol, matal kabilar keng qo'llanadi. Intertekstlar o'z navbatida milliy-mental xususiyatlarga ega bo'ladi. Badiiy matn muallifi ko'proq intertekst sifatida xalq ichida mashhur bo'lgan asardan parcha yoxud xalqning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hadis, hikmatli so'zlardan foydalanadi. Shu bois ham matn ichidagi matnni o'quvchi darrov tushunib oladi va matnda nima haqida gap ketayotganini mustaqil ravishda idrok qila boshlaydi. Intertekst sifatida berilgan matn yoki uning parchasi allaqachon o'quvchining lisoniy xotirasidan o'rin olgan bo'ladi [9].

M.Xomidovanning e'tirof etishicha, intertekstuallik mohiyatan chuqur hodisa, u shunchaki matn ichida boshqa matn parchasining berilishi emas, bu hodisa ostida ontologik, semiotik, semantik, lingvokulturologik, milliy-mental, etnik aloqadorlik mavjud. Intertekstuallik asarning g'oyaviy boyitish, uning vertikal kontekstni hosil qilish, implitsit mazmunni ifodalash, matnni konstruktiv va semantik jihatdan shakllantirish, shuningdek, uning mazmuniy persepsiyasiga yordam berishi kabi vazifalari aniqlandi. Muallif uchun badiiy niyatni ta'sirchan ifodalash, qahramonlar xarakterini ochish, vaziyatga munosabat bildirish uchun intertekstual matnlar muhim bo'lsa, matnni qabul qiluvchi retsipient uchun uning mazmuniy idrokiga yo'l ochadi[8].

Tahlil va natijalar. Intertekstuallik nafaqat badiiy, balki so'zlashuv, rasmiy, publitsistik, mediatarmoq uslubiga ham xos hodisa. Intertekst bo'lishi uchun kishilarning lisoniy xotirasida saqlangan mashhur asarlar yoki ularning qahramonlari, shaxs nomlari, tarixiy voqealar, Qur'on va hadis, folklor namunalari, xalq ertaklari, afsona, rivoyat, she'r, qo'shiq, badiiy asar parchalari, barqaror birikmalar, maqol, matal, latifalar, hattoki filmlardagi mashhur iborlarni kiritish mumkin. XXI asr fan, texnika elektronika rivojlangan davr hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar jadal suratlarda odimlab bormoqda. Fikrimizcha, ijtimoiy tarmoqlardagi mashhur jumalardan ham intertekst sifatida foydalanilishi mumkin. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, intertekstuallik xalq tarixi, madaniyati va tafakkurini o'zida aks ettiruvchi lisoniy tushuncha hisoblanadi.

Badiiy matnlarda intertekst sifatida foydalanishning ham o'ziga xos usuli bor. Buni shartli ravishda uchga bo'lish mumkin. Intertekst turlaridan foydalanish matn mazmunini o'zida ifodalashi, emosional-ekspressiv imkoniyatlarining yarq etib ko'zga tashlanish imkonini beradi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, intertekstuallik bu kodlangan ma'noning o'quvchi tomonidan tushunilishidir. Shu bois ham intertekstlar oldindan keng omma uchun tanish matnlar bo'lishi kerak, aks holda matnni tushunish jarayonida kommunikativ muvaffaqiyatsizlik yuz beradi. Intertekstning xalq ichida mashhurligi, uni o'qishi yoki eshitishi bilan o'quvchi ongida o'ziga xos reaksiya paydo bo'lishi nazarda tutilishi matnning kommunikativ muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan biridir. Intertekstning badiiy matnda yana bir vazifasi mavjud bo'lib, ko'pincha bunday matnlar intertekst ishora qilayotgan matnlarga parodiya qilinadi. Ya'ni muallif o'zidan oldin

yaratilgan muayyan bir matnni yoki uning ichidan biror so'z yoki jumlani sarlavha sifatida qo'llab, o'z matnini ham o'sha asarga qiyosan yaratadi.

Xulosa va takliflar. Demak, intertekstlar kitobxonni matn mazmuni tomon yo'naltiradi, bunda har ikki matnni nazarda tutaymiz. Ya'ni avval kitobxon uchun tanish bo'lgan matn idrok qilinadi, undan keyin berilgan asl matn mazmuni bilan qo'shib idrok qilinadi. Bu holat o'quvchiga muallif niyatini, berilgan matnning g'oyasini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Intertekstuallik kompetensiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, u bir qancha omillarga bog'liq:

Lingvomadaniyat.

Tarix.

Assotsiatsiya bilan bog'liq.

Insoniyat taraqqiyotining bugungi qiyofasi, globallashtiruv tamoyillari asosida jadallik bilan umumiy, universal xususiyatlar kasb etib borayotgan zamonamizda o'zligini saqlab qolish, milliy qadriyatlarning ahamiyati, milliy-madaniy boyliklarning asl qiymatini bugun har bir millat to'raligicha anglab yetdi. Til milliy-lingvomadaniy

jamiyat taraqqiyotini o'zida aks ettiruvchi ko'zgu sifatida hamisha olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. O'tgan asrda boshlangan milliy o'zlikni anglash va uni saqlab qolishga intilish harakatlari zamirida tilga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi, aniqrog'i, til tadqiqiga oid izlanishlar yangi rakursga ko'tarildi. Til o'zida jamiyatlardagi voqelikni aks ettirishi bilan bir qatorda, bevosita uning ta'sirida o'zgarishlarga ham uchrab boradi. Ma'lum millatga xos xarakterni, uning mental qiyofasini aks ettirish barobarida u ba'zi manbalar bilan boyib borsa, ba'zi yo'qotishlarga ham yo'liqadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligida intertekstuallik hodisasi dastlabki tadqiqotlarda tor planda o'rganilgan. Tadqiqotchi Xomidovning badiiy matnni tushinishda intertekstuallikning roli doirasida olib borgan ishlari bir muncha mukammal hisoblanadi. Xususan, unda hodisa mohiyati, intertekst va uning turlari, persepsiyadagi ahamiyati aniq ko'rsatib berilgan. Intertekstuallik tadqiqi o'zbek tilshunosligida keng doirada o'rganishni talab qiladigan dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог и роман. Французская семиотика: От структурализма к постструктурализму. – М., 2000. – С. 427-457
2. Барт. Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М., 1978. – С. 512.
3. Ильин. И. П. Постмодернизм: словарь терминов. – М., 2001. – С. 103.
4. Солодуб Ю. П. Интертекстуальность как лингвистическая проблема // Филологические науки. 2000. № 2. – С. 51-57.
5. Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоетик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т., 2010. Б. 114-121.
6. Холбеков М. Матн, интерматн ва интерматнлик. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2013 йил, 6-сон. Б. 38.
7. Худайбергенова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент, ЎзР ФА ТАИ, 2015. Б.87-93.
8. Хомидова М. Бадий матн перцепциясида интертекстуаллик. PhD. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т., 2021. – Б. 29.
9. Xomidova. M. F. "The problem of intertextuality in modern linguistics." Central Asian Problems of Modern Science and Education 3.4 (2019): 259-263.